

MAXSUS SOHALAR KESIMIDA LINGVISTIK EKSPERTIZANING AHAMIYATI

Otajonova Dildor Baxtiyarovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya: Maqolada zamonaviy lingvistik usullardan hisoblangan ekspertiza tushunchasi va u bilan bog'liq muammolarni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarning ortib borayotganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik ekspertiza, qonun ijodkorligi, ekspert, norma.

Abstract: The article highlights the growing number of studies focused on the concept of expertise and related problems of modern linguistic methods.

Keywords: linguistic expertise, law-making, expert, norm.

Аннотация: В статье освещается растущее количество исследований, направленных на изучение понятия экспертизы, которая считается современным лингвистическим методом, и связанных с ней проблем.

Ключевые слова: лингвистическая экспертиза, законодательство, эксперт, норма.

XX asrning oxirlarida shakllangan bo'lib, barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda jadal rivojlanayotgan lingvistik ekspertiza bugungi kunda ushbu soha uchun muhim sanalgan metodologiyasining yaratilish davrini boshidan kechirmoqda. Lingvistik ekspertiza o'tkazish amaliyoti o'rganilayotgan nutq materialini baholashning yagona mezonlarini ishlab chiqish, xulosalarning bir ma'noliligi va usullarning tekshirilishi zarurligini ko'rsatadi. Ushbu ekspertiza turi lingvistik kompetensiyani til birliklarining noto'g'ri anglashilishidagi ahamiyati, shuningdek, maxsus sohaga oid tushunchalarning boshqa soha vakillari tomonidan eng ko'p o'rganilishining dolzarbligini belgilab berdi. Tadqiqotlarning hozirgi holatini ushbu fan sohasidagi tadqiqotlarning dastlabki bosqichi bilan izohlash mumkin, bu har qanday ijtimoiy va ilmiy soha uchun tabiiydir, ammo lingvistik ekspert faoliyati metodologiyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq ob'ektiv uslubiy sabablar ham mavjud. Rasmiy yoki unga xos bo'lmagan turli usullar va uslubiy tavsiyalarning mavjudligi lingvistik ekspertizani takomillashtirish nuqtai nazaridan shubhasiz ahamiyatga ega.

Internet makonining kengayishi davlat va nodavlat ekspertlar tomonidan o'tkazilayotgan lingvistik ekspertizalarning keng jamoatchilik muhokamasiga barcha ekspert xulosalarining blogosfera va ommaviy axborot vositalarida efirga uzatilishini taqozo etadi. So'nggi paytlarda og'zaki, yozma va polikodli matnlarning xususiyatlarini o'zida mujassam etgan elektron matnlar tobora ko'proq lingvistik ekspertizaning semantik tadqiqotlari ob'ektiga aylanib bormoqda. Bu esa, yana bir asos – real – virtual, ya'ni axborot texnologiyalari orqali, shaxsiy aloqasiz, masofaviy amalga oshirilib, an'anaviy aloqa shakli vazifalarida ham xizmat qilish va yangi

funksiyalarni bajarish orqali tilshunoslik ekspertizasi ob'ektlari tasnifini kengaytirishga olib keldi.

Lingvistik ekspertizani o'tkazish kamida ikkita tomonning ishtirokini talab qilib, ulardan biri sud shaklida ekspertiza tayinlaydi, ikkinchisi esa uni amalga oshiradi. Respublikamiz sudlari tomonidan normativ-huquqiy va boshqa normalarda ekspertiza tayinlash tartibi, maqsad va vazifalari, shuningdek, ushbu sohadagi dolzarb masalalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Oliy maktab va Respublika ekspertiza markazi tomonidan 2021 yildagi qo'llanmada berilgan [7]. Shu bilan birga, ish uslublarining nozik tomonlari, ekspertlarning huquq va majburiyatlari, lingvistik ekspertiza o'tkazishning o'ziga xos jihatlari O'zbekiston Respublikasi ilmiy tilshunoslari tomonidan haligacha fundamental tadqiqotlarda yetarlicha o'rganilmaganligi ma'lum darajada, lingvistik ekspertiza tayinlangan holatlarning nisbatan kamligi bilan izohlanadi. Biroq rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bunday holatlar yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa demokratiyani rivojlantirish yo'lini tanlagan mamlakatimizga ta'sir qilishi muqarrar. Yuqorida sanab o'tilgan holatlarning barchasi sud, ijtimoiy faoliyatda ob'ektiv va tegishli lingvistik ekspertizalarni o'tkazish zaruratining dolzarbligini belgilaydi.

Lingvistik ekspertiza sohasi bo'yicha xorijda, xususan, rus tilshunosligida ko'plab taqdiqotlar amalga oshirilgan. Rus tilshunosligida A.N.Baranov, K.I.Berinov, E.I.Galyashina, G.S.Ivanenko kabi olimlarning, xorijda M.Kulxart, L.M.Solan, H.Huylmans kabi ko'plab tadqiqotchilarning ishlari e'lon qilingan. O'zbek tilshunosligida mazkur muammoga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, biroq ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar juda kam. Sohada asosiy masala sud-huquq tizimini isloh qilishga qaratilgan.

Ayni paytda mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ushbu mavzuga bag'ishlanganligidan shuni anglash mumkinki, jurnal va nashrlarda chop etilayotgan maqolalar internet tarmog'ida unga qiziqish nisbatan ortgan. D.To'raeva, Z.A.O'lmasxo'jaev, E.F.Yusupova, Sh. Mamadaliev, F.Saidova, G.S.Xotamova, E.Sobirova, Sh.G'ulomova, N.A.Jumaniyozova, G.X.Xasanova o'z izlanishlarida lingvistik ekspertiza mexanizmini atroflicha o'rganishga, uslubiy tavsiyalar va uni amaliy tatbiq etish algoritmini ishlab chiqishga harakat qiladilar. Demak, sudlingvistik ekspertiza jarayonini uni tashkil etuvchi ikki tarkibiy jihatdan har tomonlama qamrab olgan tadqiqotlarning yetarli emasligi ushbu jarayonning dolzarbligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи. – Тошкент: Навоий университети, 2020. – 160 б.
2. Боймирзаева С.О. Узбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ... дис. - Тошкент: УзР ФА ТАИ, 2010. – 320 б.



3. Gulyamova Sh., Mengliev B. Lexical-semantic classification of euphemisms of the feminine gender in the Uzbek language // Academia Open. Vol 1. No 1. (2019): June Articles.

4. Jumaniyozova N.A. Yuridik diskurs lingvistik tadqiqot obyekti sifatida // Сўз санъати халқаро журнали | Международный журнал искусство слова | International journal of word art №1 | 2021.

5. Mengliyev B. Amaliy filologiya istiqbollari va uning “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun ijrosiga uyg‘unligi imkoniyatlar eshigining “kalit”i. Ma’rifat gazetasi. 2015yil 10-oktabr.

6. Musulmonova K. Lingvistik ekspertiza tahlil bosqichlari mazmuni // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue –1(2021).

7. Туримбетов Р., Қаландарова М., Курбонов Н. Суд экспертизаси: саволларни шакллантиришнинг муҳим жиҳатлари. – Т.: 2021. – 135 б.

8. Хакимов М.Х. Ўзбек тилида матнинг прагматик талкини: Филол. фан. д-ри ... дис. - Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2001. - 283 б.

9. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилида матнинг антропоцентрик тадқиқи. Фил. фан. док...дисс... – Тошкент: 2014.

10. Xotamova G. S. lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 | Issue 3. 2021.